

INGLIZ TILI FANINI BILINGUAL O‘QITISH VA FAKULTATIV DARSLAR UCHUN CASE STUDY METODIDAN FOYDALANISH

Bog‘dagul Faxriddinovna Qarshiyeva

O‘qituvchi, Termiz davlat universiteti

bkarshieva@mail.ru

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ingliz tili fanini bilingual o‘qitish va fakultativ darslar uchun case study metodidan foydalanish masalasi ilmiy asoslarga tayanib ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: rotate through angle, terminal speed, muammoli vaziyatlar (case studies)

KIRISH

Tor soha yo‘nalishlari uchun (mashinasozlik sanoati, raketa dvigatellari, elektrotexnika va boshqalarni texnologik-konstruktiv tayyorgarlash) bunday o‘quv vaziyatlarini ishlab chiqish yuqori kasbiy bilimlarni talab qilishi bilan, bu o‘qituvchi uchun ham, faol ishtirokchilar va kuzatuvchilar uchun ham qiyinchilik tug‘diradi.

Yangi leksik ma‘lumot ta‘lim oluvchilar uchun shaxsan muhim bo‘lsa muvaffaqiyatli. Shuning uchun, darslarni o‘tkazish shaklidan qat‘i nazar (bilingval ma‘ruzalar, amaliyot, laboratoriya, tanlov kurslari, magistrilar bilan mashg‘ulotlar), talabalarga yangi atamalarni tayyor shaklda taqdim etish maqsadga muvofiq emas, chunki bu holda talabalar atamalar bilan faol ishlamaydilar. Boshqa tomondan, tilshunoslik fani sohasidagi faol izlanishlar ulardagi mavjud bilimlar tuzilmasini qayta qurish va uni chuqurlashtirishga undaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ko‘p hollarda iboralar sintaktik va semantik jihatdan yaxlit birlik belgilariga ega bo‘lib, uning komponentlaridan biri ma‘noga ko‘ra tanlanadi, ikkinchisini tanlash esa birinchisini tanlashga bog‘liq bo‘ladi va an‘anaga ko‘ra belgilanadi. Masalan, *rotate through angle* iborasi inglizcha so‘z birligi burchakka o‘girish iborasiga mos keladi. Amaliy mashg‘ulotlar jarayonida mavzu bo‘yicha turg‘un so‘z birikmalarini, topilgan kollokatsiyalar sub‘ektning individual lug‘atini to‘ldirishi kerak.

Fakultativ mashg‘ulotlardagi o‘quv faoliyati turlariga biz yangi tushunchalar, denotatlar, atamalar, tegishli predmet-predikativ aloqalar, savollarga javoblar, shuningdek sinonimlarni



topish mashqlariga xos xususiyatlarni ajratib ko'rsatish uchun mashqlarni bajarish bo'yicha matnlar va matn qismlarini referent va ma'lumotli o'qishni kiritamiz. Yangi so'zlarni (til shaklini) tahlil qilishni tugatgandan so'ng, yangi lug'atdan faol foydalanish uchun mazmuni tahlil qilishga qaytish kerak, uning eng yaxshi vositasi muammoli kommunikativ-bilish topshiriqlari majmuini hal qilishdan iboratdir.

Quyidagi keltirilgan misollarda terminal tezlik *terminal speed* tushunchasi matnda topshiriq bayoni sifatida keltiriladi va uni hal qilish jarayonida faol foydalaniladi.

Problem 1. A raindrop with radius 1.5 mm falls from a cloud that is at height 1200 m above the ground. The drag coefficient C for the drop is 0.6. Assume that the drop is spherical throughout its fall. The density of water is 1000 kg/m^3 , and the density of air is 1.2 kg/m^3 . (a) What is the **terminal speed** of the drop? (b) What would be the drop's speed just before impact if there were no drag force?

Problem 2. The **terminal speed** of a sky diver is 160 km/h in the spread-eagle position and 310 km/h in the nosedive position. Assuming that the diver's drag coefficient C does not change from one position to the other, find the ratio of the effective cross-sectional area A in the slower position to that in the faster position.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Bitiruvchi kurs talabalari bilan o'tkaziladigan integratsiyalashgan darslar kasbiy chet tilini o'qitish maqsadini ko'zlaydi, shuning uchun til amaliyoti yetakchi o'rinni egallaydi va mazmun qismi yordamchi vazifani bajaradi, til amaliyoti uchun asos yaratadi.

Bitiruvchi kurs talabalariga o'qitishning belgilangan maqsadini amalga oshirish fanni bilingval o'qitish va fakultativ darslar uchun mos metod va uslublar bilan bir qatorda ikki tilda kasbiy lug'atni shakllantirish uchun qo'shimcha vositalarni jalb qilish imkonini beradi. Maxsus fan dasturida mavjud bo'lgan bilimlarni tekshirish shaklida materialni kontent o'rganishning me'yoriy natijasini olish ko'zda tutilmagan. Bu o'quv material va o'quv mashg'uloti turlarining vaqtinchalik resurslari o'zgaruvchanligini keltirib chiqaradi.

Biz kasbiy faoliyatni modellashtiruvchi elementlari bo'lgan muammoli vaziyatlar (*case studies*) bitiruvchi kurs talabalarining faolligiga erishishda, ularning ongida, kasbiy leksik birliklar bilan ishlashda refleksiyaning o'z ichiga olishi muhim salohiyat deb hisoblaymiz. Bunday texnologiya bo'lajak boshqaruvchilar, masalan, "texnosfera xavfsizligi" yo'nalishi



bo'yicha magistratura talabarlari bilan ishlash uchun juda mos keladi.

Masalan, mehnatni muhofaza qilishni ta'minlash bo'yicha hukumat tashkiloti saytiga joylashtirilgan tegishli materiallar asosida, *Health and Safety Executive - the UK national independent watchdog for work-related health, safety and illness*. [1] Bitiruvchi kurs talabalariga kichik korxonlarda xodimlarning xavfsizligini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni belgilash uchun namunaviy vaziyatlar taklif etiladi. Kimyoviy tozalash (*drycleaners*) uchun dastlabki ma'lumotlar (*setting the scene*) aniqlanadi: korxonaning joylashgan joyi, binolarning turi (binoning qavatlar soni, qurilgan yili, asbob-uskunalarining joylashuvi, zinapoyalarning mavjudligi), xodimlar soni. Korxonani tahlil qilish asosida birinchi bosqichda muammoli modeli vaziyatni muhokama qilishning har ikki ishtirokchisi mustaqil ishlash uchun ajratilgan soatlar davomida xodimlar duch kelishi mumkin bo'lgan xavflar ro'yxatini tuzadi. Birinchi taxminlar quyidagi ko'rinishda bo'lishi mumkin.

List of hazards

- 1. Use of chlorinated solvents, e.g. perchloroethylene.*
- 2. Use of chemicals for spot-cleaning.*
- 3. Musculoskeletal injuries.*
- 4. Slips and trips.*
- 5. Violence and threatening behavior.*
- 6. Working at height (eg. changing light bulbs).*
- 7. Electrical (eg. faulty building wiring or faulty electrical appliances).*
- 8. Pressure vessels.*
- 9. Fire (eg. smoking, faulty electrics, arson).*
- 10. Asbestos.*

Auditoriyada har bir ishtirokchi o'zining potensial xavflar ro'yxatini taqdim etadi va sanab o'tilgan turlarning har biri ishchilarning sog'lig'iga qanday zarar yetkazishi mumkinligini ingliz tilida tushuntiradi. Sinf ishi juftlikda amalga oshiriladi, talabalar bir-birini to'ldirishi natijasida umumiy ro'yxatni tuzadilar. Keyingi bosqichda talabalarga sog'liq uchun xavf-xatarlarni kamaytirish choralari ko'rish bo'yicha yozma ko'rsatmalar beriladi. Tadqiqot natijalari auditoriyada ingliz tilida so'zlab beriladi.

XULOSA

Muammoli vaziyatni muhokama qilish shaklida darsni o'tkazishning maqsadi va vazifasi ishtirokchilarning semantik munosabatlar bilan birgalikda maxsus atamalarining ta'riflarini



ifodalay olishlari hisoblanadi. 1-jadvalda sogʻliq uchun zararli oqibatlar va ularning oldini olish boʻyicha harakatlar bilan bogʻliq atamalarning taʼriflariga misollar keltirilgan.

1-jadval.

Fan sohasidagi asosiy munosabatlarga oid atamalarga misollar

Type of hazard Zararli va xavfli omillar	Who might be harmed and how Kim va qay usulda zarar koʻrishi mumkin?	What actions are necessary to prevent it? Xavfni bartaraf etish uchun qanday amallarni bajarish kerak?
Working at height (E.g. changing light bulbs)	Staff risk injuries such as bruising or fractures from falls from any height.	Strong stepladder in good condition provided and staff are trained to use it safely. Periodic checks on condition of the stepladder needed.
Slips and trips	Staff/customers risk injuries such as fractures/bruises, if they trip over ob-jects or slip on slippages	Staff clean up spillages promptly and, where necessary, use 'wet floor' signs. Stairs well lit and in good condition. Door mats put at entrance in wet weather.

Oldindan maʼlum boʻlgan atamalarga sabab, joy, vaqt, shakl, tuzilish, fizik xossalari, maqsad va boshqa parametrlarni qoʻshish orqali yangi atamalar, tushunchalar shakllantirilishi mumkin.

REFERENCES

1. Dubbel, H. Handbook of mechanical engineering: transl.from german. - Engl.ed. - London: Springer, 1994. - ISBN 3-540-19868-7: 84 p.
2. Vinogradov, O. Fundamentals of kinematics and dynamics of machines and mechanisms. [Текст] /CRC Press, 2000. – 304 p.
3. Celce-Murcia, M. Rethinking the role of communicative competence in language teaching. / Soler E.A., Safont Jorda, M.P. (eds.), Intercultural Language Use and Language Learning, Springer, 2007. P. 41–57.

4. Каршиева Б. Ф. ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КОМПЕТЕНТНОСТЬ ПЕДАГОГА //Вестник современной науки. – 2017. – №. 3-2. – С. 43-44

5. *Халяпина, Л. П.* Методическая система формирования поликультурной языковой личности посредством Интернет-коммуникации в процессе обучения иностранным языкам [Текст]: дис. ... д-ра.пед.наук: 13.00.02 / Л. П. Халяпина. – Санкт-Петербург, 2006. – 426 с.

6. Fakhriddinovna K. B., Fakhriddinovna U. N. The Use of Interactive Bilingual Learning for Teaching English Language the Ages Of 5-6 //Texas Journal of Multidisciplinary Studies. – 2021. – Т. 3. – С.135-138.

